

DUAL TA’LIM TEXNOLOGIYASI SHAROITIDA PEDAGOGIK AMALIYOT ORQALI BO’LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY O’Z-O’ZINI RIVOJLANTIRISH MALAKALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

Adasheva Matluba Fazliddin qizi

Namangan davlat universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti

e-mail: adashevamatluba406@gmail.com

tel: [+998 94 271 02 13](tel:+998942710213)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21206165>

Annotatsiya: Ushbu tezis bo’ljak tarbiyachilarning kasbiy o’z-o’zini rivojlantirish malakalarini dual ta’lim texnologiyasi sharoitida pedagogik amaliyot orqali takomillashtirishning innovatsion mexanizmlarini tadqiq etadi. Tadqiqotda besh komponentli didaktik algoritm ishlab chiqilib, GROW, “Bashoratlar chizmasi”, “Practice” kabi interfaol metodlar asosida sinab ko’rilgan.

Kalit so’zlar: dual ta’lim, pedagogik amaliyot, kasbiy o’z-o’zini rivojlantirish, didaktik algoritm, innovatsion mexanizm.

Аннотация: Данная тезисная работа исследует инновационные механизмы совершенствования навыков профессионального саморазвития будущих воспитателей посредством педагогической практики в условиях технологии дуального обучения. В ходе исследования был разработан пятикомпонентный дидактический алгоритм, апробированный на основе интерактивных методов GROW, “Диаграмма прогнозов” и “Practice”.

Ключевые слова: дуальное обучение, педагогическая практика, профессиональное саморазвитие, дидактический алгоритм, инновационный механизм.

Annotation: This thesis investigates the innovative mechanisms for improving professional self-development skills of future preschool teachers through pedagogical practice within the framework of dual education technology. The study developed a five-component didactic algorithm, which was tested on the basis of interactive methods such as GROW, “Predictions Diagram” and “Practice”.

Keywords: dual education, pedagogical practice, professional self-development, didactic algorithm, innovative mechanism.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida bo’ljak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yuqori malakali mutaxassislariga bo’lgan ehtiyojning ortib borishi tarbiyachilardan nafaqat nazariy bilim, balki doimiy kasbiy o’z-o’zini rivojlantirish malakasiga ega bo’lishni talab etmoqda. Biroq mavjud tadqiqotlarda pedagogik amaliyotni tashkil etish va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy jihatlarini yoritilgan bo’lsa-da, ushbu malakalarni aynan dual ta’lim texnologiyasi sharoitida innovatsion mexanizmlar asosida shakllantirish masalasi yetarli darajada ochib berilmagan. Ushbu muammoni hal etish maqsadida tadqiqotda shaxsga yo’naltirilgan, faoliyatli, refleksiv va kompetentlik yondashuvlariga tayanilgan holda besh komponentli didaktik algoritm — o’z-o’zini nazorat qilish, kreativ yondashish, ko’nikmalarni rivojlantirish, o’z-o’zini tahlil qilish va motivatsiyani mustahkamlash — ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, GROW, “Bashoratlar chizmasi”, “Tugallanmagan fikrlar” va “Practice” interfaol metodlari yaxlit tizim sifatida pedagogik amaliyotga integratsiya qilinib, motivatsion, refleksiv, forsayt

va kreativ mezonlarga asoslangan baholash tizimi taklif etilgan. Tadqiqotning tajriba-sinov ishlari NamDPI, AndDPI va Navoiy DU negizida olib borilib, natijalar Styudent t-kriteriyasi asosida statistik jihatdan tasdiqlangan. Tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan barcha mezonlar bo'yicha 12–18% yuqori ko'rsatkich qayd etilgan. Mazkur natijalar ishlab chiqilgan metodikaning nazariy jihatdan kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish konsepsiyasini boyitishi, amaliy jihatdan esa oliy ta'lim muassasalarida pedagogik amaliyotni innovatsion asosda takomillashtirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatib berdi.

Asosiy qism. Kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish malakalarini shakllantirish masalasi V.A.Slastyonin, L.Mitina, K.Zeyer, G.Ibragimova, N.Muslimov kabi olimlar tomonidan refleksiv yondashuv va kasbiy kompetentlik kontekstida o'rganilgan[1]. Xususan, L.Mitina kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishni shaxsning ichki ehtiyoji va faol subyekt sifatida namoyon bo'lishi bilan bog'liq jarayon deb ta'rifladi[2], K.Zeyer uni kasbiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin etgan[3]. O'zbek olimlari G.Ibragimova va N.Muslimov esa bo'lajak pedagoglarni amaliy faoliyatga tayyorlashda refleksiv yondashuvning ahamiyatini alohida ta'kidlagan[4]. Biroq ushbu tadqiqotlarda mazkur malakalarni aynan dual ta'lim texnologiyasi sharoitida pedagogik amaliyotning didaktik imkoniyatlari asosida innovatsion mexanizmlar orqali takomillashtirish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Tadqiqot ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirish maqsadida amalga oshirilgan.

Dual ta'lim texnologiyasi nazariy ta'lim va amaliy faoliyatni parallel, uzviy tashkil etishga asoslanib, talabaga real kasbiy muhitda o'z imkoniyatlarini sinab ko'rish va rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqotda “OTM – amaliyot muassasasi – talaba” uchligi tizimi asosiy tashkiliy-uslubiy vosita sifatida belgilangan: oliy ta'lim muassasasi nazariy-metodologik asosni ta'minlaydi, MTT real kasbiy muhitni yaratadi, talaba esa ushbu ikki muhitni shaxsiy refleksiya orqali birlashtiradi. Shartnoma asosida tashkil etilgan ushbu hamkorlik tizimi talabaga o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirish, boshqarish, tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beradi. Shuningdek, maslahatchi-tarbiyachi instituti va amaliyot kundaligi vositasida har bir talabaning individual rivojlanish dinamikasi uzluksiz kuzatib boriladi[5].

Tadqiqotda ishlab chiqilgan besh komponentli didaktik algoritm — o'z-o'zini nazorat qilish, kreativ yondashish, ko'nikmalarni rivojlantirish, o'z-o'zini tahlil qilish va motivatsiyani mustahkamlash — kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish malakalarining pedagogik amaliyotda namoyon bo'lish va mustahkamlanish ketma-ketligini ifodalaydi. Algoritmida motivatsiya oxirgi komponent sifatida joylashtirilgan bo'lib, bu ataylab qilingan metodologik qaror: amaliyot boshidagi boshlang'ich (ko'pincha tashqi) motivatsiya, muvaffaqiyatli faoliyat, o'z-o'zini nazorat va tahlil jarayonlari orqali ichki, barqaror kasbiy motivatsiyaga aylanadi. Bu yondashuv Alfi Kon va Kerol Dyuek nazariyalari bilan ham uyg'un bo'lib, algoritmning asosiy xususiyati uning sikllik tuzilishida namoyon bo'ladi — har bir sikl yakunida talaba keyingi bosqichga yanada yuksak tayyorlik va mustahkam motivatsiya bilan kirishadi[6].

Didaktik algoritmni amaliyotda joriy etish uchun GROW, “Bashoratlar chizmasi”, “Tugallanmagan fikrlar”, “Practice” va “Avvalgi va bugungi fikrim” interfaol metodlari yaxlit tizim sifatida ishlab chiqilgan. GROW metodi talabada aniq maqsad qo'yish va uni amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantirsa, “Bashoratlar chizmasi” fikrlash va kollaboratsiya ko'nikmalarini, “Tugallanmagan fikrlar” esa kasbiy tushunchalarni chuqur anglash va mustaqil xulosaga kelish ko'nikmalarini takomillashtiradi. Ushbu metodlar motivatsion-tayyorlov, faoliyatli-takomillashtirish va natijani mustahkamlash bosqichlari doirasida

izchil qo'llanilgan. Malakalarning shakllanish darajasini ob'ektiv o'lchash maqsadida motivatsion, refleksiv, farsayt va kreativ mezonlarga asoslangan to'rt mezonli baholash tizimi ishlab chiqilib, har bir mezon uchun yuqori, o'rta va quyi darajalar belgilangan hamda aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakuniy bosqichlarda qo'llanilgan.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, dual ta'lim texnologiyasi sharoitida pedagogik amaliyotning didaktik imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish malakalarini takomillashtirishning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. “OTM – amaliyot muassasasi – talaba” uchligi tizimi nazariy bilim va amaliy faoliyatni organik birlashtirgan holda talabada mustaqil kasbiy o'sish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ishlab chiqilgan besh komponentli didaktik algoritm va interfaol metodlar yaxlit tizimi pedagogik amaliyot samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, motivatsiyaning algoritmda yakunlovchi komponent sifatida belgilanishi — uni tashqi rag'bat emas, balki muvaffaqiyatli faoliyat natijasida shakllanadigan ichki barqaror ehtiyoj sifatida talqin etish — kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishning uzoq muddatli samarali bo'lishini ta'minlaydi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha pedagogik amaliyot dasturlariga dual ta'lim texnologiyasi elementlarini kengroq joriy etish; ikkinchidan, maslahatchi-tarbiyachi institutini rasmiylashtirish va ularni metodik jihatdan tayyorlashga alohida e'tibor qaratish; uchinchidan, talabalarning kasbiy o'sish dinamikasini kuzatishda motivatsion, refleksiv, farsayt va kreativ mezonlarga asoslangan baholash tizimidan keng foydalanish. Ushbu yondashuv nafaqat tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshiradi, balki ularning keyingi mustaqil faoliyatida ham uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmasini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Slastyonin V.A. Pedagogika. – Moskva: “Akademiya” nashriyoti. 2002. – B. 576.
2. Mitina L.M. Psixologiya truda i professionalnogo razvitiya uchitelya. – Moskva: “Akademiya” nashriyoti. 2004. – B. 320.
3. Zeyer E.F. Psixologiya professiy. – Moskva: “Akademicheskij proyek” nashriyoti. 2003. – B. 336.
4. Ibragimova G.N. Bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi. – Toshkent: “Fan” nashriyoti. 2018. – B. 215.
5. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy shakllanishi. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2004. – B. 240.
6. Kon A. Mukofot bilan jazolash. – Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2021. – B. 384.